

PSIXOLINGVISTIKANING RIVOJI VA UNDA MATN TAHLILI MASALASI

Feruzaxon Karimova,*O‘zR FA O‘zbek tili, adabiyoti va folklori instituti katta ilmiy xodimi, f.f.d (DSc)*

Annotatsiya. Maqolada psixolingvistika fanining shakllanishi, rivojlanish bosqichlari va uning yetakchi namoyondalarining ilmiy qarashlari atroflicha yoritilgan. Xususan, til va tafakkur munosabati, nutqiy faoliyat mexanizmlari hamda individual va ijtimoiy omillarning tilga ta'siri psixolingvistik nuqtayi nazardan tahlil qilinadi. Shu bilan birga, matn tahliliga oid nazariy yondashuvlar, jumladan, matnni yaratish va idrok etish jarayonlari, intertekstuallik, mazmuniy persepsiya hamda kognitiv va pragmatik omillar asosida keng ko'rib chiqiladi. Maqolada badiiy matnlar misolida muallif va o'quvchi o'rtasidagi kommunikativ munosabat, matnning ko'p qatlamli mazmuni va uning o'quvchi ongida qayta shakllanish jarayoni tahlil etiladi. Shuningdek, psixolingvistikaning zamonaviy yo'nalishlari, jumladan, kognitiv va antropotsentrik yondashuvlar asosida matn tadqiqining dolzarb masalalari yoritiladi. Mazkur tadqiqot psixolingvistika va matnshunoslik sohasida olib borilayotgan ilmiy izlanishlarni boyitish, shuningdek, matnni tahlil qilishda yangi nazariy va amaliy yondashuvlarni shakllantirishga xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: psixolingvistika, matn yaratuvchi, matnni idrok etuvchi, intertekstuallik, uyg'unlashuv.

Аннотация. В статье всесторонне рассматриваются становление и этапы развития психоллингвистики, а также научные взгляды её ведущих представителей. Особое внимание уделяется взаимосвязи языка и мышления, механизмам речевой деятельности, а также влиянию индивидуальных и социальных факторов на язык с психоллингвистической точки зрения. Наряду с этим анализируются теоретические подходы к исследованию текста, включая процессы его создания и восприятия, интертекстуальность, смысловую перцепцию, а также роль когнитивных и прагматических факторов. В работе на примере художественных текстов рассматривается коммуникативное взаимодействие между автором и читателем, многослойность текстового смысла и процессы его реконструкции в сознании реципиента. Кроме того, освещаются современные направления психоллингвистики, в частности когнитивный и антропоцентрический подходы, в контексте актуальных проблем анализа текста. Результаты исследования способствуют развитию психоллингвистики и текстологии, предлагая новые теоретические и практические подходы к анализу текста в рамках междисциплинарных исследований.

Ключевые слова: психоллингвистика, создатель текста, воспринимающий текст, интертекстуальность, связность.

Abstract. The article provides a comprehensive overview of the development of psycholinguistics, its key stages, and the contributions of its major scholars. Particular attention is given to the relationship between language and thought, mechanisms of speech production, and the influence of individual and social factors on language from a psycholinguistic perspective. In addition, the study examines theoretical approaches to text analysis, including processes of text production and perception, intertextuality, semantic perception, and the role of cognitive and pragmatic factors. The article analyzes literary texts to explore the communicative interaction between the author and the reader, the multilayered nature of textual meaning, and the processes through which meaning is reconstructed in the reader's mind. Furthermore, it highlights contemporary trends in psycholinguistics, particularly cognitive and anthropocentric approaches, in addressing current issues of text analysis. The findings of the study contribute to the advancement of psycholinguistic and text-linguistic research, offering both theoretical insights and practical approaches for analyzing texts from a modern interdisciplinary perspective.

Keywords: psycholinguistics, text creator, text perceiver, intertextuality, harmonization.

Kirish. Psixolingvistikaning ilk qarashlari V.fon Gumboldt g'oyalari bilan bog'liq. Uning "Til go'yoki xalqlar ruhining tashqi ifodasidir: xalq tili uning ruhidir, xalq ruhi uning tilidir, bundan-da aynan narsani tasavvur qilish qiyindir", degan fikrlari til va tafakkur masalalariga hamda tilning ijtimoiy va ruhiy tomoniga e'tibor qaratilishi bilan diqqatga sazovordir.

Olimning falsafiy va lingvistik qarashlari tilshunoslikda yangi burilish yasadi va o'zidan keyingi bir qator tilshunoslik yo'nalishlari vujudga kelishi uchun ilmiy manba bo'lib xizmat qildi. "V.fon Gumboldtning tilning ijodkorona faoliyati, o'zgaruvchanlik tabiati kabi xususiyatlari haqidagi fikrlari nutqiy faoliyat nazariyasi yoki psixolingvistika kabi zamonaviy tilshunoslik yo'nalishlari uchun tayanch nuqta vazifasini o'tadi".

Psixolingvistikaning keyingi g'oyalari Boduen de Kurtene va Ferdinand de Sossyur ta'limotlari bilan boyitildi.

Boduen de Kurtenening lingvistik falsafasiga ko'ra, "til muayyan bir jamiyatni tashkil etgan individlar ongida, psixikasida, individlarning tili sifatida yashaydi. Shuning uchun Boduen de Kurtene o'z tadqiqotlarida individlar nutqiga asosiy e'tiborni qaratdi. Uning ta'kidlashicha, individlar psixikasi, tilning individual tashuvchilarigina real mavjuddir.

Adabiyotlar tahlili. Psixolingvistikaning fan sifatida shakllanishi amerikalik olimlar J.Kontor va N.Pronko nomi bilan bog'lanadi. "Psixolingvistika" terminini ilk marta 1936-yilda J.Kontor o'zining "Объективная психология грамматики" asarida keltirgan. N.Pronko esa 1946-yilda "Язык и психоллингвистика" maqolasida keng ilmiy muomalaga kiritgan. Psixolingvistika sohasiga A.A.Leontyevning o'zining *nutqiy faoliyat nazariyasi* bilan katta xizmat qo'shdi. U psixolingvistikaga ta'rif berar ekan, "Psixolingvistika – til tizimi va lisoniy qobiliyat orasidagi munosabatlarni o'rganuvchi fan", deya mazkur sohada insonga xos lisoniy qobiliyatning modellashish qonuniyatlarini ishlab chiqishga o'z hissasini qo'shdi.

Tadqiqot metodologiyasi. Mazkur tadqiqotda psixolingvistika va matn tahliliga oid ilmiy manbalar asosida nazariy-tahliliy yondashuv qo'llanildi. Ish jarayonida badiiy va publitsistik matnlar misolida matnni yaratish va idrok etish jarayonlari psixolingvistik hamda kognitiv nuqtayi nazardan tahlil qilindi. Shuningdek, assotsiativ va interpretativ metodlar yordamida matn mazmunining o'quvchi ongida shakllanish mexanizmlari o'rganildi.

Tahlillar va natijalar. Milliy til bir butun sifatida ilmiy umumlashma sanalib, faqat g'oyada yashaydi. Bu esa alohida kommunikatsiya aktiga uning e'tiborini tortishga sababchi bo'ladi. Xuddi shu sababli u kishilardan uzib olingan mavhumlashtirilgan til emas, balki til tafakkuri egasi bo'lgan inson tilshunoslikning real o'rganish obyekti bo'lmog'i lozimligini ta'kidlaydi.

Shu bilan birgalikda u tilda individuallik bilan umumiylikning ajralmasligini, individual xususiyatda bir vaqtning o'zida umumiylik, umuminsoniylik mavjudligini

bayon qiladi. U insoniyat olami ijtimoiy guruhlar majmuasi ekanini e'tirof etadi". Boduen de Kurtene ta'limotini keng talqin etgan zabardast tilshunos A.Nurmonov uni individual psixologiya nazariyotchisi sifatida baholaydi va uning ta'limotiga quyidagicha baho beradi: "Individual til (ya'ni, nutq – A.N.)gina real mavjud bo'ladi. Demak, tilning alohida tashuvchisi, individual ruh reallikka ega. Individual til deganda "boshqa lingvistik va ekstralingvistik tasavvurlar bilan birlashgan talaffuz va eshitish tasavvurlari umumlashmasi" tushuniladi. Milliy til yaxlit holda faqat idealda (g'oyada) mavjud, u ilmiy tafakkur hosilasi, deb qaraladi. Shuning uchun ham Boduen kommunikatsiya jarayonining alohida aktiga ko'proq e'tiborni jalb qiladi va real borliq sifatida kishilardan umumlashtirilgan tilni emas, balki lingvistik tafakkur egasi bo'lgan alohida shaxsni e'tirof etish lozimligini ta'kidlaydi. Bu fikr keyinchalik psixolingvistlar tomonidan rivojlantirildi". Darhaqiqat, tilshunoslikning keyingi rivojida eng ko'p e'tibor qaratilgan tomon – kommunikatsiya jarayoni, muloqot va yozma muloqot shakli hisoblangan matn tadqiqi bilan bog'liq kechmoqda, shu bilan birga shaxs omili masalasi so'nggi yillardagi tadqiqotlarda asosiy e'tibortalab nuqtalardan biriga aylandi.

F.de Sossyurning tilshunoslikdagi xizmatlari til-nutq dixotomiyasi asosiga qurilgani barcha tilshunoslarga ma'lum. Rus tilshunosligida L.V.Shcherba nutqiy faoliyatga uch tomondan e'tibor qaratishi bilan mazkur sohaga kengroq kirib bordi va muhim tadqiqot hisoblangan "О трояком аспекте языковых явлений и об эксперименте в языкознании" ("Til hodisalarining uch jihati va tilshunoslikda eksprement haqida") asari bilan e'tibor qozondi. Mazkur asarini ustoz Boduen de Kurtene xotirasiga bag'ishladi. Olim e'tibor qaratgan 3 jihat quyidagilar:

- 1) nutqiy faoliyatdagi so'zlashuv va tushunish jarayoni. Unda belgilarni tushunish va talqin qilish jarayonini tovushlarni talaffuz qilish va so'zlashuv jarayoni kabi muhim ekanligi nazarda tutiladi;
- 2) til tizimida lug'at va grammatikaning to'g'ri tuzilishiga e'tibor qaratilishi lozim. Shundagina til orqali bilim to'g'ri yoritiladi, degan xulosaga kelinadi;
- 3) til materiali, "ya'ni "mazkur ijtimoiy guruh hayotining u yoki bu davrdagi muayyan sharoitida so'zlashuv va tushunishlar majmuyi" hisoblanadi.

L.Shcherbaning psixolingvistikadagi mazkur qarashi keyingi psixolingvistik, qolaversa, pragmalingvistik tadqiqotlar uchun muhim manba bo'lib xizmat qildi. Chunonchi, olim qalamga olgan nazariyalar ichidan "nutq ijodkorligi" haqidagi qarashlar pragmalingvist olimlarni ham qiziqitirmay qolmadi.

Inson obyektiv voqelikni idrok etish jarayonida ruhiy va mental basqichlarda ish ko'rishini ko'plab soha vakillari yaxshi biladi. Mazkur jarayonni aynan qay tarzda kechishi haqida hali mukammal va o'zgarmas nazariya vujudga kelgan emas. Bu jarayonni tavsif etish uchun mazkur fikrlarga tayanamiz. "Voqelikdagi predmet va hodisalarni bilish, idrok qilish qator mantiqiy-ruhiy harakatlarni o'z ichiga olgan tarkibli faoliyatdir. Bu faoliyatning dastlabki bosqichini, albatta, ma'lum bir obyektini boshqa obyektlar qatoridan

ajratish harakati tashkil etadi. Bir obyektning boshqasidan ajratish uchun uning farqlovchi belgilarini topish lozim. Keyingi bosqichda esa farqlovchi belgilarning chogʻishtirilishi asosida obyektning hissiy ramzi yuzaga keladi. Navbatdagi bosqichda paydo boʻlgan ramzning xotirada saqlanayotgan boshqa ramzlar bilan oʻxshash tomonlari izlanadi. Nihoyat voqelikning bilishning muhim bosqichi umumlashtirish harakati amalga oshiriladi”.

Oʻzbek tilshunosligida psixolingvistika haqidagi ilk fikrlar A.Nurmonovga tegishli. A.Nurmonov oʻzining tilshunoslik va psixologiya fanlari oʻrtasidagi mushtarak tomonlar xususidagi fikrlarini “Tilshunoslik va tabiiy fanlar” asarida aytib oʻtgan edi. Uning quyidagi fikrlari hozirgacha mazkur soha bilan shugʻullanuvchi mutaxassislar uchun nazariy poydevor vazifasini oʻtamoqda, deyish mumkin. “Asrimizning 50-yillarida maydonga kelgan psixolingvistika psixologik yoʻnalishning eng yaxshi jihatlarini davom ettirdi va uni yangi bosqichga olib chiqdi.

Psixolingvistikaning oʻrganish obyektiga nimalar kiradi? Mazkur savolga ham bugungi kunda psixolingvistlar turlicha javob beradilar. Lekin ularning hammasini jamlagan holda, quyidagi masalalarni psixolingvistika obyekti sifatida ajratish mumkin.

1. Nutqning vujudga kelish mexanizmini oʻrganish.
2. Bolalar nutqining shakllanish jarayonini oʻrganish.
3. Turli nutqiy vaziyatda nutqni soʻzlovchi bilan tinglovchi oʻrtasidagi munosabatni hisobga olgan holda oʻrganish.
4. Nutqning axborot tashish funksiyasini oʻrganish va boshqalar”.

Olim eʼtibor qaratgan masalalarga oid tadqiqotlar bugungi kunda kognitiv, pragmatik va psixolingvistik, assotsiativ tilshunoslikka oid ishlarda qaysidir darajada oʻrganilmoqda. Bola tilining rivojida oila muhitining roli alohida ekanligi tilshunoslarning tomonidan koʻp bora takrorlangan. Xalqimizda farzand nutqida nuqson boʻlmasligi uchun “Butun-butun gapir” (*Soʻzlarni toʻliq talaffuz qil*), “Gapingni ichingga yutma” (*Dadil gapir*), “Gapingni yarmi chala qoldi” (*Gaping tugallanmadi*), “Ogʻziga urdi” (*Gapirishga qoʻymadi*) kabi iboralar qoʻllanadi. Ularda bolaning kichik yoshidanoq kishilar bilan muloqot qilishda nutqidagi soʻzlar talaffuziga eʼtibor berishi kerakligi, oʻz nutqiga ishonch va hurmat bilan qarashi uqdiriladi. Bolaning tili burro ekanligi uning kognitiv faoliyatining faol rivojlanayotganidan darak beradi. Odatda, bunday bolalarga oilada shaxs sifatida alohida eʼtibor qaratilayotgani, ota-ona bolaga olamni anglashida yetarli maʼlumot va bilimlarni berayotganini anglatadi. Serfarzand oilalardagi bolalarning tarbiyasida har bir bolaga alohida shaxs sifatida qarash va uning oiladagi oʻrnini mustahkam belgilash va buni bolaga anglatish juda muhim hisoblanadi. Oʻziga ishonchi baland boʻlgan va jamiyatda oʻz oʻrniga ega boʻlgan farzandlarning aksariyatida ota-onaning bolasining yoshligidagi qiziqish va intilishlariga befarq boʻlmaganliklari yotadi. Bolaning kamol topishida ona tilining oʻrni haqida N.Mahmudov asarlarida quyidagilar bayon etilgan: “Har bir tilda shu til egasi boʻlgan millatning sajiyasi, ruhiyati aks etadi. Shuning uchun

ham bolaning tili ona tili sifatida chiqib, ona tili sifatida kamol topgandagina uning shuurida tom ma'nodagi milliy ruh barqaror bo'ladi".

D.Xudayberganova tadqiqotlarida matn psixolingvistikasiga alohida e'tibor qaratilgan. Olima badiiy matnlar tahliliga antroposentrik jihatdan yondashib ish ko'radi. Bunda u o'z oldiga matn psixolingvistikasi bilan bog'liq quyidagi masalalarni qo'yadi va ularga xos tahliliy yechim beradi. "...matnni idrok qilish va tushunishda germenevtik tamoyillarni qo'llash; badiiy matnning semantik, struktur va mantiqiy tiplarini aniqlash; muallif intensiyasi va matn qismlari propozitiv strukturasi munosabatlarini o'rganish; matnning leksik, sintaktik-semantik va pragmatik xususiyatlari reallashuvida shaxs rolini ochib berish; asl matn va matn proeksiyasi o'rtasidagi munosabatlarni yoritish; adresant uslubi va retsiyentning kommunikativ kompetensiyasi darajasini o'rganish; matnni tushunishda retsiyent intellektining kognitiv va psixolingvistik jihatlarini tahlil etish; sarlavha va mazmuniy persepsiya masalalarini tadqiq etish. Matnning kognitiv-diskursiv xususiyatlarini yoritish unga shaxs omili nuqtayi nazaridan yondashishni talab qiladi. Shaxs omili esa matn yaratilishi va uning idroki – mazmuniy persepsiyasi bilan uzviy ravishda bog'liqdir". Shu o'rinda aytib o'tish lozimki, D.Xudayberganova tadqiqotida asosiy e'tibor badiiy matnning yaratilishida muallif pozitsiyasi va o'quvchining matnni qayta idrok etish jarayoniga qaratilgan. Tadqiqot o'zbek tilidagi she'riy va nasriy matnlarning kognitiv, psixolingvistik, pragmalingvistik, linvokulturologik tomondan keng tahlil etilgani hamda milliy qadriyatlarga alohida e'tibor qaratilgani bilan diqqatga sazovor hisoblanadi. Mazkur asar ham o'zbek tilshunosligi psixolingvistika soha vakillari uchun nazariy manba vazifasini o'tovchi asar hisoblanadi.

Sh.Usmonova, Sh.Shamsiyevalarning 2022-yilda nashr etilgan psixolingvistikaga oid darsligi sohada mavjud bo'lgan talabni qondirishda alohida ahamiyatga ega manba hisoblanadi. Unda psixolingvistika tarixi va buguni, psixolingvistikadagi tadqiqot metodlari hamda psixolingvistikaning tarmoqlari har tomonlama yoritilganligi bilan ahamiyatga molik.

I.Azimovanning gazeta matnlari mazmuniy persepsiyasiga bag'ishlangan tadqiqoti ham psixolingvistik yo'nalishdagi tadqiqotlardan sanaladi. Uning matn psixolingvistikasi bilan bog'liq fikrlari e'tiborli. Uningcha, "...XX asrning ikkinchi yarmida tilni matn yordamida o'rganishga qiziqish ortdi. Sababi, matn yaxlit lisoniy birlik sifatida o'zining shakliy-mazmuniy strukturasi ega. Uning turli xususiyatlari inson ongiga turlicha ta'sirini belgilashi haqidagi gipotezalar haqli ravishda ilmiy yondashuvlardan o'rin oldi". I.Azimovanning gazeta matnlari asosidagi tadqiqoti assotsiativ tajriba metodlari asosida tadqiq etilgan. Unda matn muallifi va o'quvchi orasidagi matnni tushunish va qayta ishlash jarayoni aniq misollar yordamida tahlilga tortilganligi bilan e'tiborimizni tortdi.

Badiiy matn lingvopoetikasi bilan shug'ullangan M.Yo'ldoshev qarashlariga ko'ra badiiy matndagi estetik vazifa matn tuzishda bosh maqsad hisoblanadi. O'quvchi yoki kitobxonga ta'sir qilish ijodkorning bosh maqsadi ekan, uningcha, yozuvchi niyatlari

ichida “qahramonning ichki kechinmalari, emotsional holatini, voqelikka hissiy munosabatini aks ettirish” ham mavjud bo‘lishi kerak”.

M.Xomidovaning badiiy matn persepsiyasiga bag‘ishlangan tadqiqotida ham psixolingvistik qarashlarga o‘rin berilgan. Ishda matn muallifi va kitobxon o‘rtasidagi assotsiativ bog‘lanishda intertekstuallikning roliga alohida e‘tibor qaratilgan. Muallifning fikrlari D.Xudoyberganova fikrlari bilan kesishadi: “Bu haqida D. Xudoyberganova ham shunday fikrlarni qayd etadi: “Matn mazmunining shakllanishi uni yaratuvchi shaxsning kognitiv va kommunikativ qobiliyati bilan bog‘liq bo‘lgani kabi, uni qabul qilish, idrok etish ham retsiyentning ayni shunday qobiliyatiga bog‘liqdir”. M.Xomidova asosiy e‘tiborni matnni tushunish va idrok etish masalasiga qaratar ekan, “Matn persepsiyasiga kognitiv yondashuv matnni diskursning tashkiliy qismi sifatida ta’riflaydi. Inson biror matnni o‘qir ekan, shu matn mavzusiga aloqador bo‘lgan bilimlari faollashadi va shu asosda matnni tushuna oladi. Kognitiv yo‘nalish vakillari matnning mazmuniy strukturasi ko‘proq e‘tibor qaratadilar. Tahlil matniy baza, vaziyat modeli, dunyo haqidagi bilim kabi tushunchalar asosida amalga oshiriladi. Ayni shu yondashuv matndagi intertekstual elementlarni ham tahlil qilish imkonini beradi”, deydi. Badiiy matnlar tahlilida intertekstuallikka e‘tibor qaratilar ekan, uni matnni tushunishda, matnning serqatlamligini ta’minlashda va kitobxon dunyoqarashini kengaytirishdagi rolini aytib o‘tish lozim.

Misol uchun, Muhammad Yusufning:

*Agar bo‘lsang, hammadan ham zo‘r,
Pashsha yasab, jon kirgizib ko‘r.
Fir‘avning tarixini so‘r,
Kimligingni bilmoq istasang*

satrlarini o‘qigan o‘quvchi xotirasiga “Qur‘oni Karim”dagi Muso va Fir‘avn haqidagi hikoya assotsiativ ravishda ulanadi va shoir aytmoqchi bo‘lgan xulosaga, ya’ni inson Yaratganning bir mavjudoti ekanligini, u hammadan zo‘r bo‘lolmasligini tushunib oladi. Bunda birlamchi yoki asl matn she‘r matni hisoblanadi, she‘r matni asosida tiklangan “Qur‘on”dagi Muso va Firavn hikoyati esa ikkilamchi matn yoki intermatn hisoblanadi. Fir‘avn haqidagi ma’lumotlardan bexabar bo‘lgan o‘quvchi ongida esa, “hammadan zo‘rman degan” qahramon haqidagi bilimlar birin-ketin (agar mavjud bo‘lsa) taftish qilinadi, axtariladi. Taxmin qilingan personaj she‘rdagi Fir‘avnga yaqinlashtiriladi, o‘xshatiladi, o‘quvchi ular o‘rtasida bog‘liqlik topishga harakat qiladi, agar topolmasa, bu bo‘shliq bo‘lgan bilimni to‘ldirishga harakat qiladi. Fir‘avn haqidagi bilimlarni izlash tomon yo‘naladi. Natijada intellektual salohiyatini o‘stiradi.

Yana bir misol:

*Eshilib, to‘lg‘anib ingranadi kuy,
Asrlar g‘amini so‘ylar “Munojot”.
Kuyi shunday bo‘lsa, g‘amning o‘ziga*

Qanday chiday olgan ekan odamzod!

A.Oripovning “Munojotni tinglab” she’ri o‘qilgach, kitobxonlar ikki toifaga bo‘linishi aniq. Chunki uning misralarida keltirilgan “munojot” nima haqida ekanligini anglagan, ya’ni “Qora ko‘zim” g‘azali bilan tanish bo‘lgan kitobxon birinchi guruhga, Alisher Navoiyning mazkur g‘azali bilan yaqindan tanish bo‘lmagan, yoki uning mazmunidan bexabar kitobxonlar ikkinchi guruhga kiradi. Birinchi guruh kitobxonini she’r sarlavhasidagi kuyning nomi ostida “Qora ko‘zim” g‘azali matniga murojaat qiladi va bu o‘rinda “Munojot” kuyi nomi pretsedent birlik sifatida intertekstuallikni ta’minlaydi, ya’ni ikkilamchi matnga – g‘azal matniga ishora qiladi.

Ikkinchi toifa kitobxon mazkur satrlarni idrok etishda taxminan, quyidagi “yo‘llarni bosib o‘tadi. Kitobxon dastlab “munojot” so‘ziga e’tibor qaratadi, uning qiz bola ismi yoki ismi emasligini aniqlaydi. “Munojot”ning Yaratuvchiga bo‘lgan yolvorish ma’nosini bilgan kitobxon ongida esa, bu jarayon jadallashadi, uning lisoniy xotirasida mazkur so‘z bilan bog‘liq tushunchalar yodga tushiriladi, ulardan saralangan *munojot* “Munojotni tinglab” she’ridagi ma’no-mazmun bilan qiyoslanadi, o‘xshatiladi. Bog‘liq nuqta topilgach, u tekshiriladi, she’r mazmunidagi *kuy*, *g‘am* so‘zlari orqali ifodalangan ma’no bilan *tinglamoq* fe’lining qanday bog‘lanishi mumkinligi tahlil etiladi (obyektiv va metaforik tarzdagi birikuv). Munojotni eshitish mumkin bo‘lgan kuy hamda uning qaysi asar uchun bastalanganini bilish uchun mumtoz kuylar, ko‘pincha mumtoz g‘azallar asosida yaratilganligiga e’tibor qaratiladi va bunday g‘azal muallifi she’r muallifi bilan o‘xshash dunyoqarashdagi, ya’ni bir millat kishisi ekanligiga e’tibor qaratilganda misra mazmuni to‘la chaqilishi mumkin bo‘ladi. Mazkur bosqich matn va uni idrok etuvchi o‘rtasida bosib o‘tiluvchi yo‘l hisoblanadi. Mazkur jarayon tahlili bir necha usullar, qoliplar orqali amlga oshirilishi mumkin. Unda dunyoni anglash sifatidagi geshtalt va freymlarning ham o‘rni alohida.

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, bugungi kun psixolingvistikasida matn tuzuvchi muallif hamda o‘quvchi-interpretator idroki orasidagi kognitiv-mazmuniy va psixolingvistik tomonlar tadqiqotchilar uchun ilhom manbayi bo‘lib kelmoqda. Har bir shaxs lisoniy olami o‘zgacha mazmun va ko‘rinishga ega ekan, mazkur muammoning yoritilishi yana yangi qarashlarni vujudga keltiraveradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Азимова И. Ўзбек тилидаги газета матнлари мазмуний перцепциясининг психоллингвистик тадқиқи: Филол. фан. номз. ... дисс. – Тошкент, 2008. – 153 б.
2. Гумбольдт В. О различии строения человеческих языков и его влияние на духовное развитие человечества / Избранные труды по языкознанию. – М., 1984. – С. 68.
3. Йўлдошев М. Бадиий матн лингвопоэтикаси. – Тошкент: O‘zbekiston, 2019. – Б. 97–98.
4. Karimova F. O‘zbek tilidagi muloqot matnlarining pragmalingvistik va psixolingvistik xususiyatlari. – Toshkent: Bookmany print, 2025. – 188 b.
5. Леонтьев А.А. Язык, речь, речевая деятельность. – М.: Просвещение, 1969. – 106 с.
6. Махмудов Н. Тил. – Тошкент: Ёзувчи, 1997. – 40 б.; Нутқнинг жўялиги // Ўзбек тили ва адабиёти, 2007. – № 3. – Б. 13–17 б.; Тилнинг мукамал тадқиқи йўллари излаб... // Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент, 2012. – №5. – Б. 3–16.

7. Нурмонов А. Танланган асарлар. 3 жилдлик. 1-жилд. – Тошкент: Akademnashr, 2012. – Б. 150; Нурмонов А. Тилшуносликнинг психология билан муносабати / Танланган асарлар. 3 жилдлик. 2-жилд. – Тошкент: Akademnashr, 2012. – Б. 56; – Б. 164–169.
8. Сафаров Ш. Прагмалингвистика. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2008. – Б. 227.
9. Сафаров Ш. Когнитив тилшунослик. – Жиззах: Сангзор, 2006. – Б. 15.
10. Usmonova Sh., Shamsiyeva Sh. Psixolingvistika. Darslik. – Toshkent: Bookmany print, 2022. – В. 22.
11. Хомидова М. Бадий матн перцепциясида интертекстуаллик: Филол. фан. б. фалс. докт. (PhD) ... дисс. – Тошкент, 2021. – Б. 55.
12. Худойберганова Д. Матннинг антропоцентрик тадқиқи. – Тошкент: Фан, 2013. – 136 б.
13. <https://www.ruthenia.ru/apr/textes/sherba/sherba3.htm>
14. <https://ru.wikipedia.org/wiki/Психолингвистика>

